

ILK O’RTA ASRLARDA G’ARBIY YEVROPADA GEOGRAFIK BILIMLARNING RIVOJLANISHI

Usmonova Madina Alisher qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti geografiya yo’nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o’rta asrlarda G’arbiy Yevropada geografik bilimlarning rivojlanish bosqichlari, ularning shakllanishiga ta’sir etgan ijtimoiy-siyosiy va diniy omillar hamda bu davrda yaratilgan xaritalar va asarlar tahlil qilinadi. Shuningdek Yevropada antik merosni saqlab qolish va uni qayta tiklash jarayonida monastirlar, ruhoniylar va sayohatchilarning o’rni yoritiladi. Maqola orqali Geografiya fanining G’arbiy Yevropada uzluksiz taraqqiyot jarayonida tutgan o’rni ochib berilgan.

Kalit so’zlar: geografik bilimlar, ilk o’rta asrlar, G’arbiy Yevropa, monastir maktablari, Ptolomey, xarita, diniy dunyoqarash, ilmiy meros.

1. Kirish

Antik davrida shakllangan geografik bilimlar Rim imperiyasi qulagach, G’arbiy Yevropada bir muddat sustlashdi. V-X asrlar oralig’ida Yevropada siyosiy tarqoqlik, feodal tizimning shakllanishi va cherkovning kuchayishi natijasida ilm-fanning ko’plab yo’nalishlari, jumladan geografiya ham diniy dunyoqarash doirasida rivojlandi. Shu bilan birga, geografik tafakkur to’xtab qolmadi, balki o’ziga xos diniy-falsafiy shaklda davom etdi. Milodiy V-XI asrlar oralig’i Yevropa tarixida “ilk o’rta asrlar” deb ataladi. Bu davrda Rim imperiyasining qulashi, xristianlikning keng yoyilishi hamda monastir madaniyatining rivojlanishi tufayli ilm-fan, jumladan geografiya sohasida ham yangi shakllanishlar yuz berdi.

Asosiy qism.

Antik merosning saqlanishi va monastirlarning roli.

Ilk o’rta asrlarda G’arbiy Yevropada ilmiy merosni asosan monastirlar va ruhoniylar maktablari saqlab qoldi. U yerda yunon va rim mualliflarining ayniqsa Klavdiy Ptolemey, Strabon, Pliniy kabi olimlarning asarlari qo’lyozma shaklida o’qilar va ko’chirilardi. Monastir kutubxonalari antik dunyo bilimlarini o’rta asr Yevropasiga yetkazgan asosiy markazlarga aylandi. Ptolemeyning “Geografiya” asari qayta kashf etilib, Yevropa xaritashunosligiga asos bo’ldi.

Antik meros va o’rta asrga o’tish.

Antik davr olimlari-masalan, Klavdiy Ptolemey –geografik bilimlar tizimini yaratgan edi. O’rta asrlarga kelib, G’arbiy Rimning qulashidan so’ng, bu bilimlarda bir muddat pasayish kuzatildi. Shu bilan birga, monastirlar, cherkov kutubxonalari antik qo’lyozmalarni saqlab qolgan va bu bilimlarning saqlanish bosqichini

yaratgan. Tadqiqotchi V.V. Samarkining fikricha, Gʻarbiy Yevropada oʻrta asrlardagi “tarixiy geografiya” fanining shakllanishi keng ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar bilan bogʻliq.

Xaritalash, manbalar va savdo aloqalari.

X-XII asrlarga kelib, Gʻarbiy yevropada xaritalar va geografik manbalar yangicha shakllana boshladi. Arab-islom dunyosidan lotinchaga tarjimalar orqali geografik bilimlar kirib kelgan. Masalan Kartografiya dunyo xaritalarining “mappae mundi” shakllari keng tarqaldi. Savdo aloqalari xususan Arab dunyosi va sharq bilan boʻlgan savdo yoʻllari, Gʻarbiy Yevropa olimlari uchun yangi maʼlumotlar manbai boʻldi. Shu bosqichda xaritada joylashish, iqlim, geografik hududlar haqida bilimlar kengaydi. Kitob “Northern Eurasia in Medieval Cartography” esa VIII-XIII asrlar orasidagi xaritalarning tahlilini beradi.

Yevropa olimlarining oʻrta asrlarda geografik bilimlarining rivojlanishi togʻrisida fikrlari.

Gʻarbiy yevropa oʻrta asrlarining iqtisodiy tarixi boʻyicha mutahsisi Pirenne oʻzining “Mahomet et Cherlemagne” asarida, Gʻarbiy Rim imperiyasining iqtisodiy va savdo aloqalarining arab dunyosi uzilishi bilan “Qora davr” davri boshlandi, degan nazariya bilan chiqdi. Uning fikricha, bu uzilish geografik aloqalarning va shunga bogʻliq ravishda geografik bilimlarning kechikishiga sabab boʻlgan.

Biroq Gʻarbiy yevropa oʻrta asrlarining tarixi boʻyicha mutahassis Avstriya Fanlar akademiyasi aʼzosi professor Alfons Dopsch esa qarama-qarshi nuqtai nazarni ilgari surdi: u Rim imperiyasi qulashini dramatik oʻzgarish emas, balki barqaror oʻzgarish yoʻli deb baholadi. Shu orqali u geografik bilimlarning surʼati ham “shok” holatida emas, balki asta-sekin rivojlanish yoʻlida ekanligini taʼkidladi. Bu ikki nazariya orqali geografik bilimlarning rivojlanishida iqtisodiy –savdo omillari va madaniy-ijtimoiy omillar qanchalik muhim ekanligi koʻrinadi.

Gʻarbiy Yevropada oʻrta asrlarda geografik bilimlarning rivojlanish bosqichlari

Oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada geografiya fani oʻziga xos yoʻl bilan rivojlandi. Ushbu davrda bilimlarning rivojlanishi bir necha bosqichda kechdi: saqlanish, moslashuv, yangilanish va ilmiy poydevor yaratish bosqichlari.

1. Saqlanish bosqichi

Antik davr olimlaridan Ptolemey, Aristotel, Strabon singari mutafakkirlarning asarlari Yevropada ilmiy bilimlarning asosi boʻlib xizmat qilgan. Biroq Rim imperiyasining qulashidan soʻng, bu bilimlar keng miqyosda unutila boshlandi. Shu bilan birga, baʼzi monastir kutubxonalarida antik manbalar saqlanib qoldi. Diniy markazlarda bu asarlar ilmiy rivojlanish uchun emas balki diniy–maʼnaviy maqsadlarda asrab qoʻyilgan. Shunday qilib, bu davrda geografik bilimlar **saqlanish bosqichida** boʻlib, amaliy rivojlanish deyarli kuzatilmadi.

2. Talab va moslashuv bosqichi

Oʻrta asrlarda Yevropada diniy dunyoqarash hukmron edi. Insonning Yer haqidagi tasavvurlari Bibliya asosidagi diniy tushunchalar bilan izohlanardi. Shu sababli, yaratilgan xaritalar ham **diniy mazmunga ega** boʻlgan. Eng mashhur koʻrinish — “**mappae mundi**” xaritalari boʻlib, ularda Yer markazida Quddus joylashtirilgan, dunyo esa Xudoning yaratuvi sifatida koʻrsatilgan. Bu xaritalar ilmiy emas, balki **diniy–tasavvufiy** xarakterda edi. Shunga qaramay, ular oʻz davri uchun muhim madaniy va tarixiy manba hisoblanadi.

3. Yangilanish bosqichi

IX–XII asrlarda arab–islom dunyosida ilm-fan, ayniqsa geografiya va astronomiya yuqori darajada rivojlandi. Al-Beruniy, al-Idrisi, Ibn Battuta kabi olimlar yaratgan ilmiy asarlar Gʻarbga arab tilidan lotin tiliga tarjima qilindi. Bu jarayon orqali Yevropa olimlari **antik bilimlarni arablar orqali qayta kashf etdilar**. Shu tariqa, Yevropada ilmiy tafakkur va tahliliy yondashuv qayta tiklana boshladi. Bu bosqichni **yangilanish bosqichi** deb atash mumkin, chunki aynan shu davrda geografik bilimlar diniy tushunchalardan asta-sekin ilmiy yoʻnalishga oʻta boshladi.

4. Ilmiy rivojlanish poydevori

XII–XIII asrlarga kelib, sayohatlar, ilmiy tadqiqotlar va xaritalash faoliyati kuchaydi. Yevropalik sayohatchilar Osiyo va Afrika haqida yangi maʼlumotlar olib kelar shu tariqa xaritalar yanada aniqroq, ilmiy asoslarga ega boʻla boshladi. Bu davrda geografiya fani keyingi “Buyuk geografik kashfiyotlar” davriga (XV–XVI asrlar) **ilmiy zamin** yaratdi. Geografik tafakkur diniy asoslardan ilmiy kuzatuv, tajriba va tahlilga asoslangan fanga aylana boshladi.

Xulosa qilib aytganda Avvaliga saqlanib qolgan antik bilimlar diniy shaklda qayta talqin qilingan, keyinchalik esa arab–islom dunyosining taʼsiri ostida yangilangan va nihoyat ilmiy poydevor shakllangan. Ushbu bosqichlar Gʻarbiy Yevropada oʻrta asrlardagi geografik bilimlarning rivojlanish jarayoni uzluksiz, ammo murakkab yoʻlni bosib oʻtganligi koʻrsatadi. Bu jarayon inson tafakkurining diniy tasavvurlardan ilmiy tafakkur sari oʻtishidagi muhim tarixiy bosqichlardan biri hisoblanadi.

Ilk oʻrta asrlarda Gʻarbiy Yevropada geografik bilimlarning rivojlanish haqida Natalia Lozovsky qarashlari

Natalia Lozovsky oʻzining “Yer bizning kitobimizdir: Milodiy 400-1000 yillarda Lotin Gʻarbida geografik bilimlar” nomli monografiyasida Gʻarbiy Yevropadagi geografik tafakkurning shakllanish jarayonini chuqur tahlil qiladi.

Uning fikricha bu davrda:

-Geografiya amaliy fan emas, muqaddas yozuvlarni talqin qilish vositasi edi. Yer dengiz va osmon haqidagi bilimlar, Bibliya asosida tushuntirilgan.

-Monastirlar- ilmiy bilimlarning asosiy markazlariga aylangan. Aynan shu joylarda qadimgi mualliflar asarlari lotin tilida qayta yozilib saqlanib qolgan.

-Monarxlar dunyoni xaritada emas, matnda ifodalagan. Ular uchun yer- “Xudoning yaratuvi”, shuning uchun geografik tavsif ma’naviy-diniy ma’noga ega bo’lgan.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish kerak, ilk o’rta asrlarda G’arbiy Yevropada geografik bilimlar turli bosqichlardan o’tdi antik merosning saqlanishi, diniy-mafkuraviy yo’nalishdagi geografik tasavvurlar, arab dunyosi bilan aloqalar orqali yangilanish va ilmiy jamiyatlar poydevorining yaratilishi. Chet el tadqiqotchilari bu jarayonni turlicha tahlil qilib, geografik bilimlarning rivojlanishida iqtisodiy-savdo, madaniy va ilmiy omillarning rolini ko’rsatdilar. Shu tariqa, bu davr geografik bilimlar tarixida faqat passiv “qora davr” emas balki bilimlarni saqlash, uzatish va yangilash jarayoni sifatida ko’rinadi, hamda keyingi Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichiga tayyorgarlik bo’lgan. Geografiya fanining rivojlanishini qaysi davr yoki qaysi mintaqa bilan oladigan bo’lsak, o’sha davrda soha egalarining fanga bo’lgan qarashlari turlicha. Bugungi kunda fanda asosiy bo’limlar, yo’nalishlar ishlab chiqildi.

Tabiiy geografik tizimlarning:

- Butunlik
- Terarxiya
- Hududiylik

-Dinamiklik kabi belgilari ishlab chiqildi. Geografiya fani insoniyatning global muammolarini hal etishda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois geografiya fanini raqamlashtirish, tarmoqlararo integratsiya, ekologik barqarorlik va innovatsion ta’lim orqali rivojlantirish –ilmiy va amaliy zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isidorus Hispalensis (Isidor Sevilyalik). *Etymologiae*. (VII asr)
2. Claudius Ptolemaeus. *Geographia*. — Rim davridan o’rta asrlarga meros.
3. Al-Idrisi. *Nuzhat al-mushtaq fi ikhtiraq al-afaq (Tabula Rogeriana)*. — 1154-yil.
4. Strabon. *Geographika*. — qadimiy geografiyaning asosiy manbasi.
5. Rahimov, A. “Geografiya tarixi va metodologiyasi.” — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
6. Qodirov, B. “Dunyo geografik tafakkuri taraqqiyoti.” — T.: Fan nashriyoti, 2015.
7. *The History of Cartography, Volume One: Cartography in Prehistoric, Ancient, and Medieval Europe and the Mediterranean*. — University of Chicago Press, 1987.